

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MILLIY GWARDIYASI**

**HARBIY-TEXNIK INSTITUTI**

**HARBIY VATANPARVARLIK – YUKSAK  
ISHONCH VA SADOQAT TIMSOLI**

**mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi  
materillari to‘plami**

2020 yil 11 yanvar

**KBK-26.8 O' - 23**

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik institutining Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. (2020 yil \_\_\_\_\_-sonli bayonnoma)

|                                |   |
|--------------------------------|---|
| <b>Mas'ul muharrir:</b>        | <b>Abduxalikov S.</b> falsafa fanlari doktori, professor v.v.b.   |
| <b>Tahrir hayati a'zolari:</b> | <b>Xudoyqulov Y.A.</b> falsafa fanlari nomzodi, dotsent v.v.b.<br><b>Yusupova D.D.</b> falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) |
| <b>Taqrizchilar:</b>           | <b>Musayev F.A.</b> falsafa fanlari doktori, professor v.v.b.<br><b>Raximov J.</b> pedagogika fanlari nomzodi, dotsent v.v.b.         |

**Harbiy vatanparvarlik – yuksak ishonch va sadoqat timsoli.** //Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. –T., 2020 y. 389 bet.

Mazkur ilmiy-amaliy konferensiya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019 yil 13 dekabrda imzolangan "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 28 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №F – 5529 farmoyishi ijrosini ta'minlash maqsadiga bag'ishlangan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri – bu albatta fuqarolarda, ayniqsa, yoshlarda vatanparvarlik va harbiy vatanparvarlikni shakllantirish hisoblanadi. To'plamda vatanparvarlik va harbiy vatanparvarlikni shakllantirish borasida soha mutaxassislari va olimlar, magistr, kursant va bakalavrlarning nazariy va ilmiy-amaliy fikr-mulohazalari, taklif va tavsiyalari berilgan.

To'plam gumanitar va ijtimoiy fanlar sohasi olimlari, professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar uchun mo'ljallangan.

To'plamga kiritilgan g'oya va fikrlar, foydalanilgan misol va ma'lumotlarning aniqligi uchun mualliflar javobgardirlar.

© O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2020.

## **KURSANTLARNING HARBIY VATANPARVARLIK XISSINI SHAKLLANTIRISHDA - G' OYAVIY TARBIYANING O'RNI**

**Hamrayev K.Q. – o'qituvchi  
BuxDU Harbiy ta'lim fakulteti**

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlarini to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy - iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashga qaratilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda O'zbekistonda olib borilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati va uning amaliy natijalari jahon hamjamiyatida katta qiziqish uyg'otmoqda. Mamlakatimiz tomonidan bu borada ilgari surilayotgan tashabbuslar, jumladan, BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konventsiyasini ishlab chiqish, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlarining Yoshlarga murojaati va uni amalga oshirish bo'yicha Harakatlar dasturini qabul qilish va amalga oshirish borasidagi takliflarimiz xalqaro miqyosda qo'llab-quvvatlanmoqda". [2]

Odatda odam o'zining shaxsiy qarashlari, manfaatlariga mos keladigan narsalargagina ishonadi. Ya'ni ommaga chiroyli ilmiy iboralardan ko'ra, tabiiy odatiy, kundalik hayotda ishlatiladigan so'zlar tizimi tezroq va kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Tajriba o'tkir notiq va siyosatchilarning o'z nutqlarida hech qachon g'ayritabiiy, anglash mushkulroq ilmiy iboralardan foydalanmasliklarini ko'rsatadi.

Kursantga ta'sir etuvchi va uning ishonchini uyg'otuvchi nutq shunday bo'lishi lozimki, uni tinglaganlar har bir ifoda etilgan so'z ustida kamroq o'ylanishi, aksincha, tanish, o'ziga yoqimli narsalar xususida gap borayotganini qalban his etib turishlari kerak. Demak, voiz-notiq nutqida ishlatiladigan ramzlar, so'zlar, iboralar, ishoralar, narsa va hodisalar kursant talab-ehtiyoji, orzu-umidlari va manfaatlariga bevosita aloqador bo'lgandagina ta'sirchan hamda ishonchli bo'ladi.

Har qanday jamiyatda o'tish davrida g'oyaviy g'animglar tomonidan muayyan g'oyaviy bo'shliqlar yaratishga uriniladi yoki beparvolik, befarqlik oqibatida bo'shliq paydo bo'ladi. Ana shu holatdan foydalangan vayronkor kuchlar ayrim yoshlar ongini zaharlab, aldov yo'li bilan ularni boshi berk ko'chaga etaklashga muvaffaq bo'ldilar. Mo'tabar islom dini ta'limotlarini xozirgi zamon internet vositalaridan foydalanib, noto'g'ri talqin qilinib, aldanganlar ongiga bizga yot g'oyalar singdirildi. «Vahhobiylik», «Hizbut-tahrir» oqimlari tinimsiz targ'ib etilib, umumiy qirg'inlar hisobiga bo'lsa ham, xalifalikni qayta tiklashdek safsatalar sotildi. Ayrim tafakkuri zaif yoshlar esa «arzon ekan» degan o'yda ushbu

safsatalarni «sotib oladilar». Ularning ba'zilari bo'lsa bu yo'lda hatto qurbon bo'ladilar ham. Natijada lug'atlarda «islom terrorizmi» degan noto'g'ri ibora paydo bo'ldi.

XXI asrda, fan va texnologiyalar g'oyat taraqqiy etgan davrda kishilarning ongi va qalbiga yashirin, o'z manfaati yo'lida ta'sir ko'rsatishni ifodalashda manipulyatsiya atamasi ishlatilmoqda. Manipulyatsiya - boshqalarga bildirmasdan, asl maqsadni yashirin tutgan holda boshqalar ustidan hukmronlik qilib, o'zi istagan xulq-atvorni shakllantirishni anglatadi. Bunda yovuz, vayronkor g'oyalar «da'vatchi»si shaxsga nisbatan zo'rlik qilmaydi va kuch ishlatmaydi, asl maqsadlarini pinhon tutadi. Aynan shu sababga ko'ra «islom dini niqobida» degan ibora ishlatiladi. G'oyaviy manipulyatsiya odamni u yoki bu ishni qilishga emas (targ'ibot-tashviqotdan farqli o'laroq), balki shu ishni qilishga xohish, istak uyg'otishga xizmat qiladi.

G'oyaviy manipulyatsiya jarayonlari qanday kechadi? Avvalo, da'vatchi o'zi ta'sir o'tkazmoqchi bo'lgan odam tasavvurlarini o'zgartirishga olib keluvchi bilimlar bera boshlaydi. Natijada shaxs dunyoqarashi, qadriyatlarini tizimida da'vatchi kutayotgan tartib paydo bo'ladi va etakchilik qila boshlaydi. Bu esa shaxsning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi, lekin u o'z xarakteridagi o'zgarishlarni sezmay ham qolishi mumkin.

Terrorizmning millati ham, dini ham, jinsi ham yo'q. Bu aniq. Aks holda istalgan millat yoki dini unga daxldor qilib, bog'lab ayblash uchun bahona paydo bo'ladi. Bugungi kunda millatlar va dinlar o'rtasida tolerantlik, ya'ni bag'rikenglik, bir-birini anglash, toqat qilish kayfiyatini kuchaytirish, barcha ezgu niyatli harakatlarni birlashtirish, insoniyat ongida tub burilish yasash orqali terrorizmga zarba berish mumkin. Bunga erishmoq uchun qandaydir yasama, dogmatik qarashlarga emas, mavjud fundamental ta'limot va din qonuniyatlariga asoslanishning o'zi kifoya. Chunki birorta millat mafkurasida, biron-bir din ta'limotida Yaratgan in'om etgan eng bebaho ne'mat - inson joniga qasd qilish g'oyasi ilgari surilmagan. Aksincha, inson hayotiga suiqasd eng og'ir gunoh ekanligi ta'kidlangan.

Agar inson o'z huquq va burchlarini teran anglasa, huquqiy ong va madaniyatga ega bo'la olsa, uning vayronkor g'oyalar, qo'poruvchilar ta'siriga tushib qolmaslik imkoniyatlari kengayadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev haqli ravishda ta'kidlaganidek, «Har bir fuqaro, har bir inson o'z haq-huquqini yaxshi bilishi va uni himoya qila olishi zarur. Odamlarni huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy bilimlar bilan qurollantirish asosiy vazifalardan biri bo'lishi shart. Toki jamiyatning har qaysi a'zosi o'z huquqi, o'z burchi va mas'uliyatini puxta bilmas ekan, uni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamas ekan,

bizning islohot, yangilanish haqidagi barcha so'zlarimiz, sa'y-harakatlarimiz besamar ketaveradi». [2]

Huquqiy madaniyatli shaxs faqat qonunlarni bilib, huquqiy bilimlardan xabardor bo'libgina qolmay, ularga og'ishmay amal qiladi, itoat etadi. U o'z huquqlarini boshqalar tomonidan buzulishiga, qonunlarning poymol qilinishiga loqaydlik bilan qaramay, bu haqda jamoatchilikka xabar beradi, huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlariga, sudga murojaat qilib, o'zini ham, o'zgalarni ham himoyalaydi. Har qanday nizolar va mojarolarni bartaraf etish uchun shaxs qonunga xilof kuchlarga emas, balki tegishli davlat idoralariga, pirovardida sudga murojaat qilmog'i lozim. Adolat uchun kurashish huquqiy madaniyatli har bir fuqaro, har bir insonning burchidir. Shu o'rinda Sohibqiron Amir Temurning XXI asr uchun ham o'ta ibratli bir fikriga e'tibor qaratsak: «Men yolg'on so'zlovchilarni tinglashdan bosh tortdim, eshitgandimki, podshohlarning shuxrati ularning o'z fuqarolariga rahmdilligidadir... Ana shunga ko'ra, o'z qudratimni saqlash uchun men bir qo'limga adolat shamini va ikkinchi qo'limga beg'arazlik shamini olib, bu ikki sham bilan butun umr bo'yi o'z yo'limni yoritib bordim» [1]. Adolat va beg'arazlik aynan Konstitutsiya va qonunlarga xos xususiyat. Shu sababdan ham jamiyatimizni davlat idoralarida ishlayotgan katta-katta lavozimlarga va vakolatlarga ega odamlar emas, qonunlar idora qilishiga erishish zarur. Ko'pincha tashqi qiyofasidan xalqqa g'amxo'r, go'yo aqli etarli, tajribakor xodimning o'z lavozimini suiiste'mol qilishi, urug'aymoqchilikka berilishi, mahalliychilik, oshna-og'aynichilik va pirovardida poraxo'rlik, korrupsiya kabi ofatlar ham hayotimizga jiddiy xavf solmoqda. Davlat nomidan ana shunday ish yuritib, ishlab chiqarish, tadbirkorlik va tijorat ishlariga noqonuniy ravishda aralashayotgan nopoklar aholi nazdida adolatsizlik, qonunlarga ishonchsizlik tuyg'ularini uyg'otadi, ularning huquqiy ongiga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababdan ham Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan Oliy majlisga murojaatnomasida «Barchamiz bir haqiqatni chuqur tushunib, anglab olishimiz kerak: bugun gap xalqimiz, Vatanimizning taqdiri va kelajagi, jondan aziz bolalarimizning baxti va kamoli haqida bormoqda. Shunday ulug' maqsadlar yo'lida barchamiz belimizni mahkam bog'lab ishlashimiz, bor aql-zakovatimiz, bilim va tajribamizni, jonajon Vatanimizga farzandlik mehrimiz va sadoqatimizni safarbar etishimiz kerak.

O'zimiz o'zimizga xiyonat qilmasak, o'zimiz o'zimizni aldamasak, halol-pok bo'lib mehnat qilsak, men aminman, ko'zlagan barcha marralarimizga albatta etamiz. Bu borada men avvalo ko'p sinovlardan yorug' yuz bilan o'tgan olijanob xalqimizning mustahkam irodasi va bunyodkorlik salohiyatiga ishonaman», deya ta'kidlangan edi.

Yoshlar o'zlarining ijtimoiy-ruhiy va boshqa jihatlariga ko'ra ko'pincha salbiy hodisalarga tez beriluvchanlik, jamiyatdagi o'zgaruvchan sharoitga moslashish qobiliyatining yuqoriligi bilan ajralib turadilar. Ular o'tkir hissiy bilish qobiliyatiga ega bo'lib, so'z bilan amaliyotning nomutanosiblik holatlarini kuchliroq sezadilar.

Kattalar uchun odatiy bo'lgan ayrim «adolatsizliklar» yoshlarning hali to'liq shakllanmagan ongiga, dunyoqarashiga kuchli zarar etkazishi mumkin. Yoshlar tarixiy davr talabini nisbatan keskin his qiladilar, jamiyat muammolari va vazifalarini sezadilar, ammo ularning yoshligi, tajribasining etishmasligi tufayli asosiy masalani ikkinchi darajalisidan hamma vaqt ham to'g'ri ajrata ololmay qoladilar. Shu bois yoshlar oldida haqiqatni aytishdan cho'chimaslik, soxtakorlikdan qochish, mavjud qiyinchiliklar, muammolarni ochiq-oydin bayon etmoq lozim.

Hayot haqiqatlariga mos kelmaydigan, real voqelikdan, borliqdan, xalq hayotidan, kundalik turmushdan ajralib qolgan suhbatlar, ma'ruzalar, muloqotlar, uchrashuvlar qanchalik jozibador, obro'li kishilar bilan bo'lmasin, bari bir, ularning amaliy samarasi bo'lmaydi. Yoshlarning ko'z o'ngida, qalbida turgan muammolarni o'zida aks ettirmagan, ularni qiziqirib kelayotgan savollarga etarli darajada javob bermaydigan, odamlar yuragiga jiz etib ta'sir ko'rsatmaydigan anjumanu muloqotlar, tarbiyaviy ishlar foyda bermaydi. Aksincha, maqsadga zarar keltiradi, uning obro'sini tushiradi. Natijada yoshlar bunday uchrashuvlar, muloqot, tadbir va mashvaratlardan qochadigan bo'lib qoladilar.

Yoshlarda haqiqatga moyillik o'tmish zarbalaridan cho'chib, yurak oldirib qo'ygan kattalarga nisbatan yuqori bo'ladi. Ular soxtakorlik, ko'zbo'yamachilikdan, so'z va amaliyoti bir-biriga zid kimsalardan jirkanadilar. Millat taraqqiyoti ma'naviyati yuksak yoshlarga bog'liq ekanligini nazardan qochirmagan holda tarbiyaviy ishlarni yoshlar talablari bilan muvofiqlashtirib bormog'imiz darkor. Olimlarning ilmiy tadqiqot xulosalariga ko'ra, odamning xotirasida 90 % hollarda o'zi bajargan ish, 50 % hollarda - ko'rgani va 10% hollardagina eshitgani saqlanib qoladi. Demak, g'oyaviy tarbiyada yoshlarni ko'proq o'zlari bevosita ishtirok etadigan amaliy maf- kuraviy ishlarga jalb qilmog'imiz darkor.

Ma'naviyatni targ'ib etishning ikki an'anaviy yo'li bor. Birinchisi - insoniy fazilatlarni ulug'lash, shunday xislatlarga ega kishilarni ta'riflash, namuna qilib ko'rsatish orqali kechadi. Ikkinchi yo'l esa illatlarni qoralash orqali bo'ladi. Bu vosita birinchisiga nisbatan samaraliroq. Shu sababdan ham erishilgan yutuqlarni xolisona e'tirof etib, yo'l qo'yilgan kamchiliklar tanqidiy nuqtai nazardan baholanishi zarur. Tanqid haqida gapirganda kimnidir izza qilish, obro'sini to'kish emas, xatokamchiliklarni maydalab o'tirish emas, aksincha, hamma narsani o'z

nomi bilan atash, nuqsonlar sabablarini aniqlash, tahlil etish, ularning ildiziga etib borish va tagtomiri bilan yo'q qilish asosiy maqsadimiz bo'lmog'i darkor.

Xulosa o'rnida aytish kerakki, jamiyat taraqqiyoti, xalq farovonligi ko'p jihatdan shu yurtga mansub yoshlarga bog'liq. Shuning uchun yoshlar tarbiyasi, ularning ilmi, fozil bo'lib voyaga etishi uchun azaldan ahd qilingan. Bunga erishish uchun turli xalqlar turfa yo'llardan foydalangan. Xususan, yurtimizda asosiy e'tibor ta'lim va tarbiyaga qaratilgan. Yoshlarning to'laqonli tahsil olishlari uchun tinch muhit va barcha shart-sharoitlar yaratilgan. O'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik, o'z yurtiga sadoqat, millatparvarlik ruhida tarbiyalashda, mamlakatimiz kelajagi bo'lmish barkamol avlodni shakllantirishda, yuksak ma'naviyat bevosita muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar**

1. Sog'uniy A. Temur tuzuklari. – T.: Yangiyul Poligraph Service, 2018y. – 160 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Xalq so'zi gazetasi

### **ВАЖНОСТЬ РЕАЛИЗУЕМЫХ ПРОГРАММ «МОЛОДЕЖЬ – НАШЕ БУДУЩЕЕ» – ВАЖНЫЙ ФАКТОР ПО ПОВЫШЕНИЮ ДУХОВНОГО И НРАВСТВЕННОГО ПОТЕНЦИАЛА СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА.**

**Ташкенбаев Т.Т.**

Преподаватель кафедры «Тиллар».  
Ташкентский институт по проектированию,  
строительству и эксплуатации  
автомобильных дорог

В современных условиях наша молодежь через телевидение, радио, печать и Интернет систематически получает разнообразную информацию, в том числе представляющую серьёзную угрозу её духовности, нравственности. И это невозможно запретить. При этом мировое информационное пространство постоянно расширяется. В такой ситуации мы не можем быть безразличными к происходящему вокруг нас, мы обязаны формировать в сознании людей, особенно молодёжи, своего рода иммунитет к чуждой нам пропаганде, религиозно – экстремистским взглядам, различного рода идеологическим провокациям, целью которых являются размывание наших духовных устоев, дестабилизация ситуации в стране, дискредитация проводимых политических, экономических реформ.

|    |   |   |         |
|----|---|---|---------|
| 40 | Hamraev K.Q.                                | Kursantlarning harbiy vatanparvarlik xissini shakllantirishda g'oyaviy tarbiyaning o'rni  | 172-176 |
| 41 | Ташкенбаев Т.Т.                             | Важность реализуемых программ «молодежь наше будущее» – важный фактор по повышению духовного и нравственного потенциала современной молодежи узбекистана. | 176-180 |
| 42 | Umaraliyev A. Bozorov A.A.                  | Amir Temur – vatanparvar davlat boshqaruvchisi, qonunchilik va harbiy siyosat.  | 181-184 |
| 43 | Anarkulov A. Bozorov A.A.                   | Amir Temur harbiy vatanparvarlik timsoli sifatida   | 184-188 |
| 44 | Тураев А.С.                                 | Ҳарбий куч ва ватанпарварлик ғоялари: неоконсерватив ёндашув  | 188-193 |
| 45 | Рахимов Ф. Б.                               | Буюк алломалар қарашларида ватанпарварлик ғоялари   | 193-196 |
| 46 | Rahmonov T.T., Salimov Sh.M., Sanginov M.B. | Ta'lim jarayonida kursantlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi haqida  | 196-200 |
| 47 | Кадиров М.Б.                                | Ватанпарварлик – инсонпарварлик ғояларини миллий кадриятларимиз ва динимиздаги ўрни   | 200-202 |
| 48 | Кадиров М.Б., Маматкулов Н.И.               | Ёшларда ватанпарварлик ҳиссини тарбиялаш масалалари замон талаби  | 203-205 |
| 49 | Ochilov I.N.                                | Jaloliddin Manguberdi jasorati – yuksak vatanparvarlik timsoli asoschisi  | 205-210 |
| 50 | Сагторов А.А.                               | Ёшларда ҳарбий – ватанпарварликни мустаҳкамлашда “Темур тузуклари”ни ўрганишнинг аҳамияти   | 211-213 |
| 49 | Dadajonov R., Sattorov A.A.                 | Abu Nasr Farobiy ilmiy merosi va uni o'rganishning vatanparvarlikni mustahkamlashdagi o'rni   | 213-217 |
| 50 | Niyazov E. SH.                              | Buyuk mutafakkir Muso al – Xorazmiy ilmiy merosini o'rganishning tarixiy ahamiyati  | 217-220 |
| 51 | Сагторов А.А.                               | Амир Темур ҳарбий санъати ва “Темур тузуклари”нинг ҳарбий – ватанпарварликни мустаҳкамлашдаги ўрни  | 220-223 |
| 52 | Qodirjonov K.                               | Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirishning ma'naviy - axloqiy jihatlari   | 223-226 |
| 53 | Абдуллаев А.Н.                              | Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялашда замонавий ёндашувлар   | 226-229 |
| 54 | Alimardonov Z.Sh.                           | Vatanparvarlik - imon-e'tiqodga aylangan yuksak ma'naviyatdir   | 230-233 |
| 55 | Mamatov A.A. Bozorov A.A.                   | Iqtisodiy xavfsizlikning yurtimizda tinchlikosoyishtalikni mustahkamlashdagi ahamiyati.   | 233-237 |
| 56 | Исақов М.Т.                                 | Ёшларда ҳарбий ватанпарварлик туйғуси шаклланишида ҳуқуқий маданиятнинг роли  | 237-241 |
| 57 | Муйдинов М.                                 | Ёшларда ватанпарварлик ғоясини шакллантиришда ахлоқий тарбиянинг роли   | 241-246 |